

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/389955875>

Geografiya ta'limini muvaffaqiyatli tashkil qilishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati.

Article · January 2025

CITATIONS

0

READS

4

1 author:



[Charos Ikromovna Maxmudova](#)

Chirchik State Pedagogical University

18 PUBLICATIONS 2 CITATIONS

SEE PROFILE

ISSN 2181-8258

DOI prefiksi:10.69691

IF-9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine



TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

1 (64)

2025



MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

Komolov Dilshod Pulatovich. Turkistonda jadidlar tomonidan odil sudlov idoralarini tashkil etish borasidagi harakatlar.....	9
Komolov Dilshod Pulatovich, Qlichov Farxod Pozilovich. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy sudining tashkil etilishi tarixiga bir nazar..	43
Saparbayev Bunyodbek Xurrambek o'g'li. Muhammad Rahimxon I davrida (1806-1825) Xiva davlati va Rossiya munosabatlarida "Rus qullari masalasi"	90
Matyakubov Ikrom Botirovich. Manjurlarning ichki Xitoyga bostirib kirishi va Li Zi Cheng (李自成)ning Ching(Qing 清)ga qarshi kurashining tarixiy-metodologik asoslari.....	104
Kenjayev Bunyod Baxtiyor o'g'li. 1920-yillarda Xorazmda tarix fanlaridan iborat ijtimoiy fanlar darsliklarining yaratilishi.....	109
Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li. Qadimgi davr sivilizatsion jarayonlarida ekologik omillar ta'sirini o'rganish usullari.....	113
Matyakubov Xamdam Xamidjanovich. Kaltaminor madaniyatining xo'jalik sohalariga oid ilmiy qarashlar tahlili.....	118
Babajanova Nilufar Alisherovna. Xorazm hududida temir davri geografik holati, aholi joylashishi hududiy chegaralari kartografiyasiga doir ba'zi mulohazalar.....	162
Садыкова Рената Шамильевна. Внутриполитические изменения Индии и Пакистана как факторы, влияющие на конфликт 1947-1965 годов.....	200
Yusupov Shakir Xaitbayevich. Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazmdagi shaharsozlik madaniyatining taraqqiyoti.....	231
Дадажонов Наргиза Давлатбек қизи. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССРни электрлаштириш тарихига доир.....	245
Ruzikulova Maftunaxon Yuldashevna. Markaziy Farg'ona irrigatsiyasi tarixi (1950-1991-yillar).....	280
Маткаримова Садоқат Мақсудовна. Ферузхоннинг ҳаёти ва тараққийпарварлик фаолияти.....	297
Komilov Oybek Kamilovich. O'zbekiston SSRda sug'orish tizimi tarixi (1950-1990-yillar).....	313
Алихожиев Мухаммаджон Одилжон ўғли. Эпидемияларга қарши кураш тарихидан (А.Д. Грековнинг илмий фаолияти мисолида).....	325
Саидусманов Бахром Абдуганиевич. Тошкент вилоятида автомобиль транспорти тизимининг йўлга қўйилиш тарихи (1945-1990).....	337
Yakubov Husniddin Muxitdinovich. Karfagen – qadimgi dunyoning buyuk shahri.....	340

09.00.00 - "FALSAFA"

Zulfugarov Vusal Rahmon o'g'li. Falsafa-fan aloqalari: fanlararo yondashuv kontekstida epistemologik tahlil.....	13
Davletov Jamshid Bekmatovich. Yangi davr aksiologiyasida inson qadriyatlarining transformatsiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati.....	21
Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich. Go'zallik va axloqiy qadriyatlarning madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan o'zgarishi.....	68
Yuldasheva Matluba Munavarovna. Milliy mafkura jamiyatni modernizatsiyalashda innovatsion rivojlanishni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishdagi strategik maqsadi.....	138
Рўзиев Мақсуд ўринович. Абулҳасан Бахманёр ва унинг мактаби давомчилари.....	172
Асрарова Мухаббат Усманджоновна. М.Н. Болтаев илмий меросида тасаввуфга муносабат.....	176
Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich. Zararli g'oyalarning destruktiv va g'ayrinsoniy xususiyatlari.....	191
Ja'farov Ibrohimjon Xolmuhammad o'g'li. Globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlash va ma'naviy qadriyatlar himoyasi.....	210
Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy funksiyasi.....	253
Ахатов Лутфилло Караматуллоевич, Мирахмедова Шохид Нусратиллоевна. Ҳазрат Навоий асарларида тасаввуф ва комил инсон ғояси.....	271
Djurayev G'olib Abdurasulovich. Fransuz ekzistensializmining vujudga kelishidagi ijtimoiy-falsafiy muhit.....	274
Ro'zmetov Ro'zmat Botirovich. Sun'iy intellekt jamiyat uchun ijtimoiy xavfmi yoki ijobiy hodisa.....	288
Komilov Abror Quvondiqovich. Axloq va gender tushunchalarining falsafiy ta'rif va tasniflari.....	293
Aliyev Nozimjon Nurullajon o'g'li. Yangi davr falsafasida texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanat masalasining ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	309
Imamova Umida Ismoil qizi. Jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlashning ma'naviy omillari.....	334

12.00.00 – “YURIDIK FANLAR”

Игиликков Жаксылык Жолдасбаевич. Основное понятие и анализ жалоб и апелляций.....	73
Babajanov Farrux Qadamboyevich. Iqtisodiy protsessda sud xarajatlari institutining tushunchasi.....	185
Туганова Луиза Джураевна. Роль юриста в защите социальной справедливости и прав человека.....	188

13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

Bozorov Zokir Yuldosh o'g'li, O'tanov Nurbek Abdumalik o'g'li. Kompetentli yondashuv asosida matematika o'qituvchilarini tayyorlashning metodologik xususiyatlari.....	55
Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna. Bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi muammolari.....	135
Tangirova Ruhshona. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati.....	158
Ibragimova Matluba Maxsudovna. Sog'om avlod tarbiyalashda badiiy gimnastika va milliy raqs uyg'unligini ta'minlashning samarador jihatlari.....	165
Maxmudova Charos Ikromovna. Geografiya ta'limini muvaffaqiyatli tashkil qilishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati.....	194
Yo'ldashev Umirzoq Xamza o'g'li. An'anaviy va raqamli texnologiyalarning ta'limdagi uyg'unligi.....	197
Duschanova Nilufar Sabirbayevna. Adabiy ta'limni amalga oshirish mexanizmlari.....	218
Илмуродова Феруза Шакировна. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашда кластер тизимининг аҳамияти.....	259
Ismoilova Malika Erkinovna. Boshlang'ich ta'limda nizolarni bartaraf etishning amaliyotdagi holati.....	285
To'rayev Azamat Maqsudovich. Zamonaviy jamiyatda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning umumiy farovonlik uchun ahamiyati (Oliy ta'lim muassasalari talabalari hayoti misolida).....	302
Xujaniyazova Guzal Yuldashevna. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun ta'lim resurslaridan foydalanishning asosiy Komponentlari.....	321
Koshanova Nilufar Maxsudovna. Yevropa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda intellektual mulk huquqining ahamiyati.....	347

19.00.00.- “PSIXOLOGIYA”

Xayrullayev Qodir Zarfulla o'g'li. Zamonaviy psixologiyada frustratsiya muammosining o'rganilganlik darajasi.....	150
Matchanov Jamshidbek. Stress va ma'naviy salomatlik: zamonaviy qiyinchiliklar va yechimlar.....	236
Ernazarov Nurlanbek Esnazarovich. Abraham Maslouning ehtiyojliklar nazariyasini tahlillash.....	343

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - “Tarix”, 09.00.00 - “Falsafa”, 10.00.00 - “Filologiya” ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – “Yuridik fanlar”, 13.00.00 – “Pedagogika”, 19.00.00 – “Psixologiya” ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

GEOGRAFIYA TA'LIMINI MUVAFFAQIYATLI TASHKIL QILISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

*Maxmudova Charos Ikromovna, Chirchiq davlat pedagogika
universiteti "Geografiya" kafedrası katta o'qituvchisi*

THE IMPORTANCE OF A COMPETENCY-BASED APPROACH IN THE SUCCESSFUL ORGANIZATION OF GEOGRAPHY EDUCATION

*Makhmudova Charos Ikromovna, Senior Lecturer, Department
of Geography, Chirchik State Pedagogical University*

ЗНАЧЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В УСПЕШНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Махмудова Чарос Икромовна, старший преподаватель
кафедры географии Чирчикского государственного
педагогического университета*



<https://orcid.org/0009-0001-5802-2873>

e-mail:

ikramovnacharos@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning bo'lajak kadrlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari, shuningdek, geografiya ta'limida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning kasbiy yo'nalishga muvofiq bilim va malakalarini o'z vaqtida samarali shakllantirish masalalarining dolzarbligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy moslashuvchanlik, global muammolar, geografik axborot tizimlari (GIS), integratsiya, resurs, innovatsion yondashuv, ekologik xavfsizlik, tanqidiy fikrlash, landshaft, toponimika, ijtimoiy-geografik xususiyatlar.

Abstract: This article analyzes the possibilities of the competency-based approach in education in forming practical skills necessary for the personal and professional development of future personnel, as well as the relevance of the issues of timely and effective formation of knowledge and skills in accordance with the chosen professional direction based on the competency-based approach in geography education.

Keywords: competence, competency-based approach, professional flexibility, global problems, geographic information systems (GIS), integration, resource, innovative approach, environmental safety, critical thinking, landscape, toponymy, socio-geographical features.

Аннотация: В статье анализируются возможности компетентностного подхода в образовании по формированию практических навыков, необходимых для личностного и профессионального развития будущих кадров, а также актуальность вопросов своевременного и эффективного формирования знаний и навыков в соответствии с выбранной специализацией. профессиональная направленность на основе компетентностного подхода в географическом образовании.

Ключевые слова: компетентность, компетентностный подход, профессиональная адаптивность, глобальные проблемы, географические информационные системы (ГИС), интеграция, ресурс, инновационный подход, экологическая безопасность, критическое мышление, ландшафт, топонимика, социально-географические особенности.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish samaradorligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Bu jarayonda respublikamizda ta'lim sifatini oshirish va global standartlarga mos kadrlarni tayyorlash ustuvor masalalardan sanaladi. Ayni damda yurtimizdagi ta'lim islohotlari mazmuni, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda modernizatsiya qilish, talabalarda tahliliy fikrlash va tanqidiy yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, geografiya fanlarini o'qitishda turli innovatsion usullardan samarali foydalanish asosida geografik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim talabalarda qayta ishlash ko'nikmalarni rivojlantirish, hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda amaliyotlar orqali zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi.

MUHOKAMA. XXI asrning globallashtirish dunyosida kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun bilimlarni amaliyotga integratsiya qilishning ahamiyati juda katta. **Kompetensiyaviy yondashuv** ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni faqat o'zlashtirish emas, balki ularni hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv hisoblanadi.

YUNESKOning ta'lim bo'yicha ilmiy dokladida ta'kidlanishicha, XXI asrdagi ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, jumladan, kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgan ta'lim jarayoni talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni hayotda qo'llash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi[1]. Albatta, ushbu yondashuv ta'lim va hayot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlab beradi.

YUNESKO kompetensiyaviy yondashuvni XXI asrdagi ta'lim jarayonining eng muhim tamoyili sifatida baholaydi. Kompetensiyaviy yondashuv amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlaydi, chunki u nazariy bilimlarni hayotda uchraydigan muammolarni yechish uchun amaliy ko'nikmalarga aylantirishni talab qiladi. Masalan,

geografiya ta'limida talabalar joy nomlari va tabiiy hodisalarni o'rganish jarayonida zamonaviy vositalardan, jumladan, geografik axborot tizimlari (GIS) va interaktiv xaritalardan foydalanishni o'rganadilar. Bu yordamida talabalar nafaqat ma'lumotlarni tahlil qilishni, balki uni vizuallashtirish va tadqiqot natijalarini samarali taqdim etishni ham o'rganadilar[2]. Kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ahamiyati ham bevosita birinchi navbatda nazariya va amaliyot integratsiyasida namoyon bo'ladi. Jumladan, yuqori darajadagi ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyatini shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy maqsadi bu har bir talabaga zaruriy ko'nikmalarni egallash va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun keng imkoniyat berishdir. Bunday yondashuvda ta'limda, asosiy e'tibor har bir talabaning fan bo'yicha qanchalik malakali ekanligiga qaratiladi. Demak, talaba o'z mahoratini ko'rsata olgandagina bilimlarini rivojlantirishi mumkin. O'qituvchilar esa har bir talabaning o'z iqtidorini namoyon qilishi uchun avval to'liq o'zlashtirishni ta'minlaydi[3]. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarga shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatini beradi. U individual yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa har bir talaba uchun shaxsiy ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqib ta'lim olishni ta'minlaydi. Bu jarayon talabalarining tanlangan kasb yo'nalishiga muvofiq bilim va malakalarining rivojlanishiga samara beradi. Geografiya fani nuqtayi nazaridan kompetentlik bu o'qituvchi noan'anaviy vaziyatlarda, kutilmagan hollarda o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda to'g'ri va asosli harakatlanish rejasi bilan faoliyat olib borishini anglatadi. Mana shunday faoliyat geografiya fani dars jarayonlarida ham kompetentlik orqali yondashuvni yo'lga qo'yishda ijobiy samara beradi.

O'zbekistonda geografik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim jarayonining zamonaviy talablariga javob berish bilan birga, global va mintaqaviy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan. Ushbu

tadqiqotlar uzluksiz ta'lim tizimidagi nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali geografik bilimlarni chuqurlashtirish, ekologik savodxonlikni oshirish, turizmni rivojlantirish va tabiiy resurslarni samarali boshqarishda alohida ahamiyat kasb etgan.

Kompetensiya faqat bilim yoki ko'nikma bilan chegaralanmaydi, balki bu aniq maqsad, motiv, qiziqish, mavjud bilim, faoliyat nazorati va irodaviy yo'naltirilganlikni tartibga solish usullarini o'zida mujassam etgan shaxsning shaxsiy sifatidir [1].

XULOSA. Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy o'qitish texnologiyalarini va usullarini qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Bu esa interaktiv dars berish yo'llari orqali o'quv dasturlarini yaratishda yangiliklarni joriy etishga imkon beradi. Geografiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning zarurati asosiy masalalarni hal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalar tabiiy resurslarni doimiy ravishda saqlashi uning ekologik tizimlarni tushunishiga, unga e'tibor qaratish va berilgan resurslardan samarali foydalanishni o'rganishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO. *Rethinking education: Towards a global common good?* YUNESKO, 2015. <https://unesdoc.unesco.org/>.
2. Goodchild M.F. *Geographic information systems and science* (2nd ed.). Hoboken, NJ: Wiley, 2007.
3. Maxmudova Ch.I., Ijodiy faoliyat asosida geografik obyekt va joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi. // *Geografiya – nazariyadan amaliyotga*. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 360-366 b. 2024-yil 25-noyabr.
4. Qorayev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. *Education, Science and Innovation*, 2 (2), 45-50.
5. Mahmudova Ch.I. Talabalarda geografik obyekt va joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasini rivojlantirishda ajdodlar ilmiy merosidan foydalanishning zarurati. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*. №7 / 2023. 150-b.

